

SINKEN XOPP



SEHRLI BO'R

Hajriy ertak



A

B



Sinken Xopp

SEHRLI BO‘R

Hajviy ertak

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2011

UDK 821
84 (Nor)
X 75
BBK 84 (4Nor)

Tarjimon
ILHOM ZOYIR

Xopp, Sinken.

Sehrli bo‘r: Hajviy ertak /Sinken Xopp; Tarjimon: Ilhom Zoyir. –
T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.–40 b.

Norveg adibasi Sinken Xopp qalamiga mansub ushbu ertak qahramonlarining harakatlari, hazil-mutoyibalari bolalar qalbiga juda yaqin. Ertakda ijtimoiy, pedagogik, axloqiy muammolar ochib beriladi va do‘stlik, birdamlik, sadoqat kabi insoniy fazilatlar tarannum etiladi. Ertakda qorishib ketgan kulgi esa xayoliy orzularni bachkanalikdan himoya etib, o‘quvchini samimiy orzularga oshno qiladi.

BBK 84 (4Nor)

ISBN 978-9943-03-360-5

© Ilhom Zoyir, G‘afur G‘ulom
nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi, 2011-yil. (Tarj.)



YUN VA SEHRGAR KAMPIR

Bor ekan-da, yo‘q ekan, Yun ismli kichkina bola bor ekan. Uning asl ismi Yun Albert Bryun, familiyasi Sulbekken ekan. Albert va Bryun ismlari ona tomondagi bobosi sharafi uchun berilgan bo‘lsa-da, uni sodda qilib Yun deb chaqirishar, chunki uchta ismni qo‘shib chaqirish noqulay. Bir kuni u yo‘lda hushtak chalib borayotganida, muyulishda munkillagan kampirni ko‘rib qoldi. Kampirning sehrgar ekanligini Yun bilmas, kampir ham Yunga qayrilib qarashni xayoliga keltirmasdi. Katta va keng burunli, iyagida yakkam-dukkam mo‘yi bor, ko‘zoynak taqqan Munsen xonim ismli bu kampir ko‘rinishidan qo‘rqinchli bo‘lmasa-da, aytarli xushro‘y ham emasdi.

Kampir sehrgarlikni bilsa-da, hech qachon momaqaldiroq aralash jalani, chaqmoq yoki shunga o‘xshash balolarni chaqirmasdi. Faqat o‘zining tushligi uchun ozgina mazali qaylani sehrlab qo‘yardi, xolos. Bir kuni dazmolni sehrlagan edi, dazmolning o‘zi barcha kiyimlarni dazmollab tashladi. Uyidagi sehrlilattaning o‘zi pol yuvdi. Yana bir kuni soliq to‘lash maqsadida pulni sehrladi — soliq to‘lash hamma uchun qonun edi-da!

Munsen xonim yanchilgan go‘sh tiste‘mol qilardi, garchi biror marta ham go‘sh do‘koniga kirmasa-da. To‘g‘ri, og‘ilxonasida ko‘ngil uchun cho‘chqa boqardi. Lekin o‘sha cho‘chqa shunaqangi tez qaridiki, oxir-oqibat unda soqol o‘sib chiqdi. Ehtimol, bunaqa soqolli cho‘chqa Norvegiyada yagonadir. Ko‘rdingizmi, kampir qanaqangi zo‘r sehrgar ekanligini! U Tverbakken ko‘chasidagi eski uyning boloxonasida yashaydi.

Uning Lisay tog'ida emas, aynan Tverbakken ko'chasida yashashi Sizni ajablantirishi mumkin. Biroq buning ajablanadigan joyi yo'q. O'zini hurmat qiladigan sehrgarlar endi juda oddiy ko'chalarda yashashadi. Shunaqalardan birini taniyman. U kiborlardan — bir o'ziga butun boshli dala hovli. Munsen xonimdan birozgina chiroyli bo'lsa-da, qalbida zig'ircha mehr yo'q.

Yun uchratgan kuni Munsen xonim o'sha jodugarnikidan qaytayotgan edi. Mezbbon Amerikadagi xolasi pochta orqali yuborgan oltita sehrlil bo'ring birini do'stlik hurmati uchun Munsen xonimga sovg'a qilgandi. Sehrlil bo'r ko'rinishidan boshqa bo'rlardan farq qilmas: uvalanadigan, qo'lni bulg'aydigan oddiy maktab bo'riga o'xshasa-da, biroz boshqacha — uning bu tomoni emas, aksincha, u tomoni o'tkir. Bir qarashda, bu farq darrov ko'zga tashlanmaydi.

Munsen xonim tikish va bichishni unchalik xush ko'rmas, shuning uchun cho'ntagi doim teshik. Ayniqsa, paltosining cho'ntagi. Ammo bu unchalik qo'rqinchli emas: biror narsani cho'ntagiga solsa, o'sha narsa astarga tushar, so'ng u yerdan kerakli narsani xohlagan paytda olsa bo'lardi.

Bir kuni Munsen xonim teshik cho'ntakni yamash uchun sandiqdan eski paltosini oldi. So'kilgan astardan to'rt krona pul, to'rt-beshta mayda chaqa, bir juft boshmaldoqli qo'lqop, g'altakli qora ip, ikki bo'lak qand hamda bir nechta sichqonchalar chiqdi. Xonim bu yerga sichqonchalar qayerdan kelib qolganligini hech tushunolmadi. Uning cho'ntakka sichqon solib yurish odati yo'q edi. Ehtimol, sichqonchalarning o'zi bir balo qilib cho'ntakka kirib olgandir.

Yun ko'rib qolgan kuni Munsen xonim paltosiz, yo'l-yo'l chiziqli koftada sayr qilib yurar, Yun topib olgan bo'rsa ana shu koftaning cho'ntagidan tushib qolgan edi.

YUN VA SOFUS

Yun topilmani oddiy, muallima doskaga yozadigan bo'r degan xulosaga keldi. Shuning uchun uni kaftiga qisib, to chizish uchun o'ng'ay joy uchramaguncha yurib ketaverdi.

Oxiri ko'k rangga bo'yalgan devorning oldiga kelib to'xtadi va devorga bo'r bilan bolakay rasmini chizdi. Chizgani unchalik o'xshamadi, chunki Yun chizishni hali yaxshi bilmasdi. Bolakay rasmi g'alati chiqdi.



G'alatligi shundaki, Yun chizishni tugatgan zahoti bolakayga jon kirdi va devordan yerga sakrab tushib, dedi:

— Salom! Mening ismim Sofus.

«Ikkalamiz bir bo'lsak, zerikmaymiz», deb o'yladi Yun va bolakayga do'st bo'lishni taklif qilarkan,

yana nimadir chizishga yordam berishini so'radi. Sofus rozi bo'ldi.

Yun quyonning boshini chizar-chizmay Sofus unga hoziroq bas qilishini so'radi. Ma'lum bo'lishicha, u quyonlarni yoqtirmaskan.

— Men judayam jasurman, — dedi Sofus, — lekin nimagadir quyonlardan ozgina qo'rqaman.

Yun yarmi tayyor bo'lgan quyon rasmini tezda o'chirdi. Chunki, Sofusning qo'rqishini istamasdi.

— Bilasanmi, yaxshisi kattakon eshikni chizgin! — dedi Sofus.

Yun eshik rasmini chizgan edi, u darrov ochiladigan bo'ldi.

Eshikning u tomonida maysalar qiyg'os o'sib yotar, daraxt va butalarda esa bo'liq mevalar hil-hil. Jilg'a shaldirab oqmoqda, baliqlar g'ujg'on o'ynashmoqda, atrof rang-barang yorqin gullarga burkangan.

TO'TIQUSH

Bog'da sayr etish bolakaylar uchun qiziqarli edi. Birozgina chaqchaqlashish uchun Yun To'tiqushning yoniga o'tirdi. Sofus esa bog'dagi daraxtlarni qo'porib tashlash uchun Filni ko'ndirmoqchi bo'ldi.

— Bu yerga yaxshigina joylashib olibsan! — dedi Yun To'tiqushga.

— Joylashib olibsan! — viqor bilan javob berdi To‘tiqush va qanotlarini qashib qo‘ydi.

— Bu yerda, menimcha, kimgadir nimadir yetishmaydi? — dedi Yun.

— Yetishmaydi! — takrorladi To‘tiqush.

— Sen nimani xohlarding? — surishtirdi Yun. — Seni bilmadimku-ya, men sovg‘ani juda yaxshi ko‘raman!

— Sovg‘ani yaxshi ko‘raman! — qichqirdi To‘tiqush.

— Ko‘ryapmanki, sening aqling joyida! — dedi Yun.

— Sening aqling joyida! — takrorladi To‘tiqush.

— Xo‘sh, senga nima sovg‘a qilish kerak? — so‘radi Yun. — Elektr poyezdi, yozish mashinkasi yoki telefonmi?

— Telefon! — dedi To‘tiqush.

Yun telefon rasmini chizdi. To‘tiqush darrov go‘shakni ko‘tarib raqam terdi, afsuski, unga hech kim javob bermadi.

— Sening raqaming telefon daftarchasida yo‘q! — izoh berdi Yun. — Shuning uchun qo‘ng‘irog‘ingga hech kim javob bermaydi. Aytgancha, isming nima?

Tug‘ilganidan buyon birorta ismi yo‘qligi sabab To‘tiqush tumshug‘igacha qizardi. Ismi bo‘lmasa, qanday qilib telefon daftarchasiga uning raqamini yozishlari mumkin?

— Nachora, senga ism topish kerak, — dedi Yun. — Seni kim deb chaqirishlarini xohlarding? Oliver Twist yoki Gulliver debmi? Robinzon Kruzo yoki graf Monte-Kristo debmi? Tanla, qay biri senga yoqadi?

— Sinfingdagi eng zo‘r bolaning ismi nima?

— Leyf.

— Unda mening ham ismim Leyf bo‘laqolsin.

Yun uzun sim rasmini chizib, uni «Markaziy telefon stansiyasi» deb yozilgan kichkina uychaga uladi. So‘ng go‘shakni ko‘tarib raqam terdi. Telefon stansiyasidan ovoz keldi.

— Eshitaman.

— Direktor bilan gaplashsam bo‘ladimi? — dedi Yun.

— Marhamat.

— Sizga shuni ma‘lum qilib qo‘ymoqchimanki, hozirgina o‘rnatilgan yangi telefon uchun nomer berilishini va telefon

egasining ism-familiyasi telefon daftarchasiga yozib qo'yilishini so'rayman.

— Yaxshi, — direktorning xayrixohli ovozi eshitildi. — Marhamat qilib bizga o'z ismingizni aytangiz.

— Leyf, — javob berdi Yun.

— Familiyangiz?

— Uning familiyasi yo'q.

— Qiziq, kim o'zi u?

— To'tiqush.

— Axir Norvegiyada to'tiqushlarni odatda «Yakob» deb chaqirishadi. Istisno tariqasida oldinlari «Polli» deb ham atashgan.

— Bu to'tiqushning ismi Leyf. U nomer olishni sabrsizlik bilan kutmoqda.

— Yaxshi, sizga 66h66 nomerini taklif qilaman. Uni eslab qolish juda oson.

— Rahmat!

— Allo! Allo! Allo! — qichqirdi direktor. — To'tiqushga aytib qo'ysangiz, tik turib raqam terayotganida teskari tomondan qaramasin.

— Mabodo teskari tomondan qarasa nima bo'ladi?

— Umuman boshqa raqam bo'ladi...

O'shandan buyon Leyf o'z daraxtida o'tirib olib, kun bo'yi telefonda gaplashadi.

— Telefonni huda-behudaga ishlataverma! — deb tayinladi unga Yun.

Otasi Yunga qalamtaroshmi, o'yinchoqmi yoki boshqa biror narsa sovg'a qilsa shu gapni takrorlardir. Shuning uchun Yun bunaqa narsalarga hammavaqt e'tibor bilan qaraydi. Lekin To'tiqush hech nima va'da qilmadi, faqat jilmayib qo'ydi, xolos.

Yun o'zicha o'yladi: «To'tiqushga darrov yangi ism va telefon sovg'a qilindi, lekin u bunga loyiqmi? Halitdan surbetlik qilyapti». Shu payt Sofusning ayyuhannos solib yig'lagani eshitildi.

G'AROYIB HODISA

Sofus o'zini anhorga otdi. Axir u bo'r bilan chizilgani bois suvga yaqinlashishi mumkin emas edi. Nachora, u suvda eriy boshladi va birpasda ikki oyog'idan ajraldi...

— Bo'rni tezroq olib kel! Bo'rni tezroq olib kel! — qichqirdi Sofus.

Yun esa bo'rni ehtiyotlab ishlatishga qaror qilgan, bunaqa topilmani huda-behudaga ishlatish yaxshi emasligini bilardi. Mana, To'tiqush sovg'a uchun unga rahmat ham demadi-ku. Lekin, Sofusning oyoqsiz qolganini ko'rgach, unga yordam berish uchun shoshildi.

— Bo'rni bu yoqqa ber! — ingradi Sofus. — Birvarakayiga botinkam bo'lishini ham xohlayman.

— Qanaqasini — rezinaliginimi yoki charmliginimi?

— Bog'ichli, yaltiroqligini!

— Men senga aytsam, chang'ichilar botinkasi judayam pishiq, — e'tiroz bildirdi Yun.

— Men kamtarman! Hech qachon hech narsani tilanib olmayman, o'zimda bor narsaga qanoat qilaman. Lekin hozir ipak bog'ichli yaltiroq tufli kiyishni judayam istayman...

— Mayli, lekin sen uni avaylab kiyishga so'z ber, — dedi Yun va bo'rni Sofusga uzatdi. Sofus o'ziga bir juft ipak bog'ichli yaltiroq tufli chizdi.

— Ularni ehtiyot qil, — takrorladi Yun. — Har kuni kechqurun yotishdan oldin tozalab qo'yishni unutma.

— Hm... — dedi Sofus. — Men kiyimlarimga alohida e'tibor beraman. Haligacha meni hech kim isqirt demagan. Hozir esa botinkamni tozalashga holim yo'q. Boshqacha aytganda, judayam zerikarli.

«Kishi o'z poyabzaliga bunday yomon munosabatda bo'lishi kerak emas!» deya tanbeh berish uchun Yun og'iz juftlamoqchi edi, shu lahzada g'aroyib hodisa ro'y berdi. Bolakaylar turgan joylarida qotib qolishdi.

Hammasi yirtqichlarning bezovtalanishi va xavotirli qarashlaridan boshlandi. Ko'zoynakli ilon shosha-pisha burnining uchidagi ko'zoynagini to'g'rilab oldi, fil esa

xartumini ko'tarib bo'kirdi. Keyin ular to'rt tomonga qochishdi. Uzoqdan bostirib kelayotgan qora bulut yaqinlashgan sari atrof qoraya boshladi.

BIRDAN QO'RQINCHLI GUMBURLASH, UVLASH VA QASIR-QUSUR OVOZ ESHITILDI. BOLAKAYLAR O'ZLARINING OVOZLARINI O'ZLARI ESHITOLMAY QOLISHDI. GUMBURLASHDAN QULOQ PARDALARI YIRTILIB KETGANDAY BO'LDI... VA SHU ZAHOTI ULARNI QORONG'ULIK O'RAB OLDI.

IS BOSGAN CHUMCHUQ

Quyosh yana charaqlaganda, bog'da birorta ham gul qolmagan, barglar qovjirab, yer bo'zarib kulga o'xshab qolgandi.

— Men hech qanday xavf-xatardan qo'rqmayman! — dedi Sofus. — Faqat qorong'ulikka toqat qilolmayman. Bilasanmi, mening yuragim nozik.

Yaltiroq tufisini kul va chang qoplagan Sofusning burniga qorakuya chaplangan edi.

— Ana endi kuppa-kunduz kuni yuvinishga to'g'ri keladi! — xo'rsindi Yun.

— Unchalik isqirt emasmiz-ku! — dedi norozi ohangda Sofus. — Axir, hadeb yuvinish menga mumkin emas — do'xtir man qilgan, gapirish esa xavfli.

— Sog'lig'ing yomonligi shundoqqina ko'rinib turibdi.

— Sen bu gapingni qo'y! Men ho'kizday soppa-sog'man!

Yun hamisha to'g'ri gapirishni yaxshi ko'rardi. Ko'pincha bu borada u haq bo'lib chiqar va boshqalarning xatosini ko'rsatib berishga harakat qilardi. Tanishganlaridan buyon Sofusga yoqmaydigan allaqancha narsalarni gapirib tashlashga ulgurdi.

Shu payt qayerdandir ashula ovozi eshitildi: qurum bosgan daraxtning qurum bosgan shoxida qurum bosgan chumchuq o'tirib olib, qurum bosgan ovozda ashula kuylayapti. Ashula shunaqangi mungli ediki, uni ta'riflab ham bo'lmasdi. Nimagaki, bosmaxonada qushlar sayrashini ifodalaydigan

harflar yo‘q. Biz esa Siz aziz o‘quvchilar uchun o‘sha ashulaning rasmini chizishga harakat qildik. Mana o‘sha rasm:



Rasmni ko‘rib, bu ashula qanchalik mungli ekanligini tasavvur qilgan bo‘lsangiz kerak. Sofus ashulani tinglab, rosti, yig‘lab yubordi.

— Mungli ashulalarga toqatim yo‘q, — dedi u. — Ehtimol, bu — men bardosh bera olmaydigan yagona holatdir. Aslida men barcha holatlarga chidayman.

Yun esa shu damda chumchuqqa qanday yordam berish haqida o‘ylardi. Avvaliga unga cho‘ntakli issiq kamzulcha chizdi.

— Umrim bo‘yi shunaqa kamzulcham bo‘lishini orzu qilardim, — dedi Sofus. — Ehtimol, bu mening qachonlardir orzu qilgan narsamdird.



Yun bu safar uning gaplariga e‘tibor bermay, chumchuq uchun yoqimli juft — moda chumchuq chizishga ham va‘da berdi.

Biroq, Chumchuqoyni chiza olmadi. Yun qanchalik chizishga urinmasin, pakana odamning shakli chiqaverdi. Shunday bo‘lsa-da, Chumchuq baribir xursand bo‘ldi.

— Xafa bo‘lma, — chirqilladi Chumchuq Yunga qarab. — Shaharda qo‘li gul amakim yashaydi. U birpasda pakana odamni qushga aylantira oladi. Undan iltimos qilsam bo‘ldi.

— Endi er-u xotin totuv yashashadi, — dedi Yun. — Ko‘rinib turibdi, ular bir-birini yaxshi tushunishyapti... Quloq sol, og‘ayni, kamzulchangni ehtiyot qilib kiy! — deb tayinladi Yun Chumchuqqa.

Chumchuq bu gapga javob bermadi. Chunki u jufti bilan qizg‘in suhbatga kirishib ketgan edi.

YUN, SOFUS VA YIRTQICHLAR

Qovjiragan ko‘katlar, qurum bosgan daraxt va kuldan uzoqlashish maqsadida Yun bilan Sofus yo‘lga tushishdi. Yo‘l yurishdi, yo‘l yurishsa-da, mo‘l yurishdi. Nihoyat avvalgidan-

da chiroyli yerga yetib kelishdi. Har bir daraxt va buta gulga burkangan bo'lsa-da, bu yerda biror jondan nishon yo'q. Ehtimol, birinchi qarashda shunday tuyilgandir. Bo'lmasa, chor atrof yirtqich hayvonlarga to'la edi.

Biror kishini uchratishmagach, bolakaylar xafa bo'lishdi. Shu payt Sofus skripka topib berishni Yundan talab qila boshladi. U skripkada kuy chala olishiga ishonardi.

— Quloq sol, Yun, — dedi Sofus, — agar do'stim bo'lsang, menga bitta skripka chizib ber! Bilasanmi, skripkam bo'lishini tug'ilganimdan buyon orzu qilaman.

— Senga skripka kerakmi? — qayta so'radi Yun. — Buni chizish judayam qiyin. Keyin, istayotgan narsang senga foyda berishiga ishonmayman. Onam hamisha bu narsa bolalarga zarar deb aytadilar.

— Mening buvim esa boshqa narsani aytganlar: o'rtog'ingga biror narsani berishni xohlamasang, avval yaxshilab o'ylab ol. Buvilar ko'p narsani bilishadi, chunki ular onalarning onasi, — e'tiroz bildirdi Sofus. — Buvim yana deganlarki, agar sen og'ir ahvolga tushib qolsang yoki skripka chalishni xohlab qolsang-da, do'sting uni senga ravo ko'rmasa. Bu qanday do'stlik bo'ldi endi?

Yun bu gapdan ta'sirlanib, darrov skripka rasmini chizmoqchi bo'ldi, afsus, skripka g'alati chiqdi. Shunday bo'lsa-da, Sofus uni iyagiga tirab pista po'chog'i bilan chalgan edi, quvnoq kuy taraldi. Kuy shunaqangi chapani ediki, skripkaning o'zi o'yinga tushib ketdi. Bolakaylar unga ko'zlarini chaqchaytirib qarab qolishdi. Cholg'u ularga ta'zim qildi, so'ng havoda sakray-sakray norvegiyaliklarning milliy madhiyasini kuyladi: «Ha, biz sevamiz o'z yurtimizni...» Madhiya boshlanishi bilan bolakaylar o'rinlaridan turishdi. Sofus burnini qoqa boshladi, Yunning esa hayajondan ko'zlariga yosh keldi.

Cholg'u madhiyani oxirigacha ijro etdi. Butalar orasidan chiqib kelgan yirtqichlar ham madhiyani tinglashdi. Ular Sofusga yaqinlashib, birovi raqsga tushdi, birovi bilganicha qo'shiqqa jo'r bo'ldi.

Kuy tindi va bir sakrab skripkaning ichiga kirib yashirindi. Yirtqichlar bolakaylardan biror nima yeysizlarmi deb so‘rashganida, bolakaylar anchadan buyon hech nima yemaganliklarini aytishdi.

Shunda yirtqichlar shunaqangi tushlik tayyorlashdiki, bu tushlikni hech kim hech qachon ko‘rmagan...

Dasturxonda hech vaqo qolmagach, mehmonlar va mezbonlar bir-birlariga minnatdorchilik bildirib, tarqalishdi.

AQLLI BOYQUSH

Qartaygan Boyqush murabbo solinadigan likopchada mudrab o‘tirardi. Sofus gazli suv ichib maza qilar, Yun esa endi nima ish qilish kerakligi haqida o‘ylardi. Shu payt Sofus qichqirib yubordi: u gazli suvni ustiga to‘kibdi. Bo‘r bilan chizilgan emasmi, qorni suvga bo‘kib, faqat boshi, ko‘kragi va oyog‘i qolgan, o‘rtada esa hech vaqo yo‘q. Yun shoshapisha bo‘r bilan unga yangi qorin chizdi.

— Shoshma! Bo‘rni menga ber, o‘zim chizaqolay! — yalindi Sofus. — Men butun umr uzun shim kiyishni orzu qilardim. Menimcha, tug‘ilganimdan buyon shunaqa shimim bo‘lishini istagan bo‘lsam kerak.

Bo‘rni olgan Sofus o‘ziga tana va cho‘ntakli shim chizdi. Shim biroz tor, yuqoridagi tugmasi erta-indin uzilib tushadiganday bo‘lsa-da, bu hech narsani o‘zgartirmasdi.

Likopchada mudrab o‘tirgan Boyqush ko‘zini ochib atrofga nazar tashladi. Uning shu turishi Yunning muallimasi Daniyelsen xonimga o‘xshab ketardi. Muallima ko‘ylagining rangi ham Boyqushnikiga monand.

Boyqush g‘azab bilan katta-katta ko‘zlarini bolakaylarga tikdi. Daniyelsen xonim ham hamisha shunaqa qarardi va qulog‘ini qashib qo‘yardi. Yun hozir «Boyqush muallimaga o‘xshab turli tarixiy sanalarni yoki olti karra yetti necha bo‘lishini va hokazo narsalarni so‘ray boshlaydi», deb o‘yladi. O‘ylagani to‘g‘ri chiqdi.

— Ey, bola, maktabda senga nima ko‘proq yoqardi? — deb so‘radi Boyqush Yundan.

— Tanaffus, — to‘ng‘illadi Yun.

— Hm... — deya cho‘zildi Boyqush. — O‘ylashimcha, qobiliyatli o‘quvchiga o‘xshamaysan. Qani, ayt-chi, nima u — rangi ko‘k, o‘zi dumaloq, boshda o‘tiradi?

— Rangi ko‘k, o‘zi dumaloq, boshda o‘tiradi? — takrorladi Sofus. — Axir bu mening buvim-ku.

— Bo‘lishi mumkin emas!

— Chin so‘zim, buvim sen aytganday dumaloq, och-ko‘k rangli ko‘ylak kiyib yuradi. Qo‘shnilarning aytishicha, u hamma ishning boshida o‘tiradi.

— Men «boshda o‘tiradi» degan ma’noda so‘ramayapman. Sen, bolakay, gapni yaxshi eshitmaskansan!

— Unaqa bo‘lsa, men javob berolmayman.

— Bu sening qalpog‘ing-ku! — qichqirdi Boyqush. — Uning rangi ko‘k, o‘zi dumaloq, sening boshingda turibdi. Nima, bu — yomonmi? Kattalar bilan gaplashayotganingda hurmat yuzasidan uni boshingdan olishing kerak... Endi men qanday sanashlaringni tekshiraman. Agar o‘n ikkita tuxum yarim krona tursa, unda bitta tovuq qancha turadi?

— Tuxum tovuqdan judayam qimmat, — dedi Yun.

— Tuxumni ko‘rgani ko‘zim yo‘q! — xitob qildi Sofus.

— Tovuq turgan joyida xohlaganicha turadi! — tantanali ravishda e‘lon qildi Boyqush. — Hech narsaga tushunmaysizlar!

— Sen kurk tovuq haqida aytmading-ku. Oyim Yakobsen xonimdan sotib olgan tovuq umuman bir joyda turmaydi, kun bo‘yi devordan devorga sakrab yuradi! — e‘tiroz bildirdi Yun.

— Shunday deb o‘ylagan edim-a, — dedi Boyqush, — sen yaxshi o‘quvchilardan emassan... Unda ayt-chi, o‘n beshni uchga bo‘lsak, nima bo‘ladi?

— Nimani uchga bo‘lish kerak? O‘n besh qoshiq baliq yog‘inimi yoki o‘n beshta konfetnimi?

— Baribir!

— Baribir emas-da! Agar konfet bo‘lsa — bu judayam kam, baliq yog‘i bo‘lsa, bu umuman kerak emas.

— O‘n beshni uchga bo‘lsa, o‘n to‘rttadan tegadi, — dedi Boyqush qulog‘iga qistirgan uchi o‘tkir qalamni olib. — Avval biz beshni uchga bo‘lamiz. Bo‘linmaga birni yozamiz. Endi

uchni o'n beshdan ayiramiz — o'n ikki qoladi. Buni uchga bo'lsak — to'rttadan tegadi. Bo'linmaga to'rtni yozamiz. To'rt karra uch, bu bo'ladi — o'n ikki, bunda qoldiq nol chiqadi!

$$\begin{array}{r} 15 \overline{) 3} \\ - 3 \quad 14 \\ \hline 12 \\ - 12 \\ \hline 0 \end{array}$$

Boyqushning ishidan ana shunday ustuncha hosil bo'ldi:

Bolakaylar bu ustunchadan ko'z uzolmay qolishdi.

— Qoyil! Judayam zo'r! Haqiqatan ham konfetni bo'lsa shunaqa chiqadi. Agar baliq yog'ini bo'lganda bunaqa chiqmasdi... Bo'linmani tekshirib ko'rolasanmi? — Boyqushdan so'rashdi ular.

— Bo'lmasam-chi! — javob berdi Boyqush. U yana qalamni olib ishga kirishdi: — Demak, biz o'n beshni uchga to'g'ri bo'ldikmi — tekshirib ko'ramiz. Bo'linmani — o'n to'rtni ko'paytiramiz bo'linuvchiga, ya'ni uchga. Avval biz to'rtni uchga ko'paytiramiz — bu bo'ladi — o'n ikki. Bu sonni yozib qo'yamiz. Keyin birga — bu uch bo'ladi. O'n ikki qo'shuv uch — bo'ladi — o'n besh.

$$14 \times 3$$

$$\begin{array}{r} 12 \\ + 3 \\ \hline 15 \end{array}$$

Bu safar Boyqushning ishidan mana bunday ustuncha hosil bo'ldi:

Shundan so'ng Boyqush yanayam kekkaydi va ko'zoynagining ustidan bolakaylarga o'qrayib qarab qo'ydi.

— Nahotki bularni maktabda o'rgatishmagan bo'lishsa?

— Hech narsani o'rgatishmagan, — javob berdi Yun. — Men hech narsani o'rganmaganman, Sofus esa hech narsani umuman bilmaydi.

— Shunday deb o'ylagan edim, — dedi Boyqush. — Men maktabga qatnab yurgan paytlarda umuman boshqacha edi.

Boyqush o'tgan kunlarni eslab chuqur xo'rsindi. U biroz jim turdi-da, so'ng erinmay ro'molchaga burnini qoqdi va qo'lidagi qalamni bolakaylarga o'qtalib, qichqirdi:

— Agar men bularni qayta qo'shib chiqsam, yana o'n besh chiqadi. Mana, qaranglar:

$4+4+4=$ bu bo'ladi — 12, $1+1+1=$ bu bo'ladi — 3.
 $12+3=$ bu bo'ladi — 15.

$$\begin{array}{r}
 + 14 \\
 + 14 \\
 + 14 \\
 \hline
 \end{array}$$

— Hecham-da, — tezda e'tiroz bildirdi Sofus. —12+3 — bu 123 bo'ladi. Mening buvim ana shunday hisoblaydilar, buni u kishi restoranda ofitsiant bo'lib ishlagan birinchi erlaridan o'rganganlar.

— Judayam to'g'ri, 3+12 — bu 312 bo'ladi, — gapga qo'shildi Yun. — Bundan chiqadiki, darslik kitobda nima yozilganini o'zing bilmaysan!

— Ha-ha-ha! Tet-e-nan-a-tak-lar! — nojo'ya gapirib yubordi Boyqush.

— Nima, nima? — dedi bolakaylar ajablanib.

— Men boyqushcha tilda gapirdim, bu til dunyodagi eng go'zal tillardan, — dedi Boyqush va tezda suyunib ketdi. — Tet-e-nan-antak-lar!..

Bolakaylar hech nima deyisholmadi. Boyqush esa shu so'zni takrorlab qichqiraverdi. Bolakaylar qochmoqchi edi, ularni to'xtatdi.

— To'xtanglar! — dod soldi Boyqush. — Oxirgi savol!

— Yetar! — deya qichqirdi bolakaylar avvaliga, so'ng yugurishdan to'xtab, savolni kutishdi.

— Nahotki mening ismimni bilishni istamasanglar? — baqirdi Boyqush. — Mening ismim — Anna Susanna — Atsinma!

— Bunisi endi qanaqa tilda bo'ldi? Maxfiychami? — so'rashdi bolakaylar.

— Bu teskaricha til! — qichqirdi Boyqush.

Undan boshqa hech qanday gap eshitishmadi.

XRISTOFOR KAMBALUMB

Shundan so'ng, Yun bilan Sofus yo'lni davom ettirisharkan, kechqurun qayerda tunashni o'ylashardi. Birdan ularning oldidan o'rtasi tubsiz qora teshikli tog' o'sib chiqdi. Ichkari qop-qora bo'lgani uchun Yun qo'l fonari rasmini chizishiga to'g'ri keldi. Fonar g'aroyib chiqdi, go'yo kichkina quyoshga o'xshardi.

— Mumkinmi, fonarni men ushlab yursam? — so'radi Sofus. — Bir umr shunaqa fonarim bo'lishini orzu qilardim.

— Ma, ol, — dedi Yun, — faqat yo‘qotib qo‘yma.

— Hayotda biror marta ham fonar yo‘qotmaganman! — ishonch bilan dedi Sofus.

— Ajabo, senda u umuman bo‘lmagan-ku! — kuldi Yun.

— Ana, sen yana mendan ayb qidirypsan!

— Qara, g‘orning devoriga qancha harf o‘yib yozilgan! — hayqirdi Yun. — Fonarni to‘g‘irla, o‘qiylik-chi, nima deb yozilgan ekan.

— Harflar shunaqayam jirkanch bo‘ladimi? Bunga chidolmayman, — qichqirdi Sofus.

— To‘g‘ri, faqat sen ularni o‘qiy olmaysan.

— Men o‘qiy olmaskanmanmi?

— Unda o‘qi-chi, nima deb yozilgan ekan?

Yozuvni o‘qib bo‘lmasdi — u goh yuqoriga, goh pastga qarab yozilgan. Buni o‘qish uchun ko‘p vaqt kerak edi.

Bolakaylar yozuvni o‘qimay, ichkariga kirisharkan, badbashara timsohga duch kelishdi. Timsoh yerga uzala tushib, shunaqangi xurрак otib yotardiki, xurragidan g‘or devorlaridan toshchalar ko‘chib tushardi.

— Timsohlari aqlli jonivorligi to‘g‘rimi? — deb so‘radi Sofus.

— Ha, — tasdiqladi Yun. — Timsohlari judayam ayyor bo‘lishadi.

— Uxlayaptimi u?

— Yo‘q, ayyorlik qilyapti.

Yun ko‘prik rasmini chizdi va ular shu ko‘prik orqali g‘orning nariyog‘iga timsohning bosh tomonidan yugurib o‘tishdi. Timsoh og‘zini katta ochdi, lekin bolakaylarni tutolmadi.

— Sen nega timsohdan qo‘rqmading? — so‘radi Yun Sofusdan.

— Bilasanmi, men nima deb o‘yladim: agar timsoh ikkalamizdan birimizni yemoqchi bo‘lsa, u albatta semiz kishini yeydi, demak, seni. Shunda uning qorni to‘yadi va menga tegmaydi.

— Ko‘rib turibmanki, sen haqiqiy do‘st ekansan! — piching qildi Yun.

— Arzimaydi! — dedi yumshoqlik bilan Sofus.

Ular ehtiyotkorlik bilan oldinga qarab yurishdi: kim biladi, ularni bu qorong‘ulikda yana qanaqa xatarlar kutmoqda?

— Xohlaysanmi, buvimning ertaklaridan birini aytib bersam? — dedi Sofus. — Ehtimol, shunda bizga uncha qo‘rqinchli bo‘lmas!

— Aytsang-chi, tezroq!

— Bor ekan-da, yo‘q ekan, bir Kambala bor ekan. Uni hamma Xristofor deb chaqirarkan...

— Safsata! — uning gapini bo‘ldi Yun. — Kambala degani — baliq. Baliqning ham ismi Xristofor bo‘ladimi?

— Men aytayotgan baliqning ismi Xristofor, vassalom! Uning familiyasi esa Kambalumb. U o‘zining silliq patlari bilan butun shaharda maqtanib yuradi.

— Jinnimisan? Pat faqat qushlarda bo‘ladi. Axir, Kambala — baliq-ku.

— Men aytayotgan Kambalada pat bo‘lgan, pat bo‘lgan-dayam qanaqa: ko‘m-ko‘k, qizil, tilla rang — hayratdan dong qotasan!

— Bo‘lishi mumkin emas!

— Bo‘larkan-da. Aytgancha, bu Kambalaning onasi qush bo‘lgan. O‘zi suvda emas, qishloqdagi oddiy uylarning birida yashagan.

— Kambala qishloqda yashashi mumkin emas!

— Nimaga mumkin emas? To‘g‘ri, u qishloqda judayam zerikkan. O‘zing o‘yla, shuncha yildan buyon suzishni o‘rganmagan.

— Shu paytgacha men eshitgan ertaklar ichidagi eng jinnichasi ekan bu ertak!

— Mayli, mening Kambalam haqida bilishni istamasang, istama! — xafa bo‘ldi Sofus. — Aytgancha, u yaxshigina quruvchi bo‘lgan...

— Xo‘sh, nima qurgan ekan?


— Suyak qurgan. Hamma baliqlar suyak qurishadi-ku.

— Bu ertagingni eshitishni xohlamayman!

— Aytadigan boshqa narsa bo‘lmasa, nimani aytay? — dedi Sofus. — Ertak-da bu!

Shu payt judayam qo‘rqinchli narsani ko‘rib qolishdi. Ikkita katta-katta ko‘z qorong‘ulik bag‘ridan ularga qarab turardi.

Bolakaylar avvaliga timsoh bizlarga yetib oldi, deb o‘ylashdi. Lekin ehtiyotkorlik bilan noma‘lum yirtqich tomonga fonarni to‘g‘rilashgach, ko‘rishdiki, bu yo‘lbars ekan. Yo‘lbars pastakkina devorcha ustidan qarab turardi. Shu payt Yun yo‘lbarsdan chaqqon ekanligini ko‘rsatdi. Sehrli bo‘rni qo‘liga olib, Sofus mahkam ushlab turgan fonar yorug‘ida yo‘lbarsning boshiga yangi tana chizdi. Tanaga tezda jon kirib, yo‘lbarsning bo‘yniga yopishdi. Shundan so‘ng yo‘lbars mana bunday ko‘rinish oldi:



Bolakaylar devorning orqasida yo‘lbarsning ikkinchi tanasi borligini bilishmasdi. Ikkita tanali yo‘lbarsning bir xulosaga kelishi og‘ir kechdi: qay birini yeb, qay birini o‘zida qoldirsin?

Kutilmaganda Sofus qoqqan qoziqdek qotib qoldi. Ko‘rinishi tashvishli.

— Qanday bo‘lsa shunday! — dedi Sofus. — Xatoyim nimada ekanligini tushundim. Bu g‘orga kirishdan oldin hech narsani o‘ylamabman. Buvim esa hamisha o‘ylash kerakligini uqtirardilar.

— Endi afsuslanishga ne hojat? Biz shu yerdamiz-ku! — jerkib berdi Yun.

— Bilasanmi, buvim «O‘ylab ko‘rish hech qachon kech emas», derdilar. Shuning uchun yaxshilab o‘tirib olaman va o‘ylashni boshlayman.

— Shoshilish kerak! O‘ylashga vaqt yo‘q. Menimcha, sening buving unchalik aqlli emas ekan.

— Mana bu yerda o‘tirib mulohaza qilaman, — dedi Sofus o‘tirgan joyidan turib. — Men tezroq o‘yimni oxirigacha o‘ylashga qaror qildim, nimagaki, chumoli inining ustiga o‘tirib olibman. Ular meni chaqishni boshlashdi. Qara, men nimani o‘yladim: eng to‘g‘ri yo‘l — g‘orning judayam ichkarisiga qarab borish, shunda biz chumoli inidan juda uzoqda bo‘lamiz.

— Tushunmadim, nimaga sen hardamxayol bo‘lib qolding? Buni aytmasang ham hammasi ayon-ku!

— Men bilan bunaqa ohangda gaplashma! — dedi Sofus xafa bo‘lib. — Bunga toqat qilolmayman!

MEHRIBON KAMPIR

Bolakaylar o‘nqir-cho‘nqir yo‘ldan yurib, oz-ozdan oldinga qarab siljishdi. Qorong‘uda Yun tizzasini urib olib, cho‘loqlanib qoldi. Sofusning esa yangi tuflisi tovonini qavartirdi. Oshnalar charchashgani uchun yo‘l-yo‘lakay uxlashdi — odatda bunday paytda Yun to‘shakda yotgan bo‘lardi, Sofusning esa nima qilishini hech kim aytolmaydi. Nima bo‘lgandayam, hozir har ikkisi yumshoq to‘shakda yotib, uxlab qolishni juda-juda xohlashardi.

Yun bilan Sofus kutilmaganda yaxmalakka duch kelib, sirpanib ketishdi va birdan pastga — qorong‘ulikka qarab q

u

l

a

b

tushishdi.

Sofus birorta suyagim sinmadimikin, deya ehtiyotkorlik bilan qimirlab ko‘rdi. Soppa-sog‘ligiga ishonch hosil qilgach, ichiga kirib qolgan sichqonning g‘imirlashidan qitig‘i kelib kuldi va qulab tushgani esidan chiqdi. Sekin shivirladi:

— Yun, shu yerdamisan?

— Tirikmisan, Sofus? — Yunning chalqancha ovozi eshitildi.

Yun boshi bilan katta halqobga «shalop» etib tushgani uchun ovozi past va tushunarsiz eshitilardi. Ehtimol, ikkisi ham boshi bilan tushgandir?

— Nazarimda, tirikman, — dedi Sofus. — Lekin ishonmayman. Bu haqda o‘ylab ko‘rishim kerak.

— Skripka butunmi? — chalqancha so‘radi Yun. Shundan so‘ng u aylanib, oyoqqa turib oldi.

— Ko‘rib turibsan-ku, ustida o‘tiribman. U parchalanib ketdi, ustida o‘tirish ham noqulay.

— Uni avayla demaganmidim senga? — dedi Yun jahil bilan.

— Nima, men uni avaylamadimmi? O‘rnimdan turmagunimcha, u hech qayoqqa yo‘qolmaydi.

Shu tobda

bolakaylar

zinadan

jimgina,

sezdirmasdan

pastga

tusha

boshladilar.

Yun bo‘rni qidirdi. Xayriyatki, joyida ekan. Fonar esa chilchil sinibdi.

Atrofni paypaslayotgan Yunning qo‘liga bexosdan issiq, junli va sirli narsa tegib ketdi. Qulog‘iga og‘ir nafas eshitildi. Xayriyat, boshqa qo‘li paypaslab zinani topdi.

Ular boshqa yirtqichga ro‘para kelishmadi. Qo‘li tegib ketgan narsa nima bo‘lishi mumkin? Oddiy qo‘ydir?

— Men o‘tirib bu haqda puxta o‘ylab ko‘raman, — qaror qildi Sofus. — Sen uning rangi qanaqaligini bildingmi?

— Hozir o‘ylashga vaqt yo‘q, — dedi Yun. — Biz ishlashimiz kerak. Ko‘ryapsanmi, uzoqdan nur ko‘rinyapti, o‘sha tomonga yugurdik!

Nur shinam, oldida gulzori bor kichkina uychaning derazasidan ko‘rinayotgan edi. Uychada olamdagi barcha buvilardek mehribon kampir tebranma kursida o‘tirib, oyog‘ini kursichaga tirab olgan ko‘yi uzundan-uzun paypoq to‘qirdi.

Uychadagi javonda esa shirin kulchalar bor edi. Kampir oq oralagan sochiga chiroyli farq ochgan, ko‘zoynagi burnining uchida turibdi. U tezda choy tayyorlab, ikkita piyolaga quydi va likopchada shirin kulchalardan keltirib qo‘ydi. Bolakaylar hali shirin kulchalarni yeb tugatmaslaridan oldin, kampir Xristofor Kambalumb haqidagi jinnicha ertakka o‘xshamagan, uzundan-uzoq haqiqiy ertak aytib berdi.

KAMPIR VA AJOYIB JONIVORLAR

Bolakaylar likopchadagi shirin kulchalarni allaqachon yeb tugatishgandi. Kampir ertagini tugatgach, bolakaylardan so‘radi:

— Yana yeysizlarmi?

— Yo‘q, rahmat! — dedi Yun. Unga onasi shunday deb aytish kerak deb o‘rgatgani uchun ham shunday dedi.

— Kattakon rahmat! — dedi Sofus kampirga va o‘sha zahoti yana bitta shirin kulchani og‘ziga soldi.

— Taomni yaxshilab chaynab, so‘ng yutish kerak, — uqtirdi Yun. — Senga o‘rgatishmaganmi?

— Yo‘q, negadir eslayolmayapman.

— Bo‘talog‘im, — dedi kampir kutilmaganda, — sening qo‘llaring buncha kir! Shunaqa qo‘l bilan shirin kulcha yeyish mumkinmi? Bu yoqqa kel-chi, seni bir yuvintirib qo‘yay.

Bu gapdan Sofus bilan Yun quloqlarigacha qizarib ketishdi. Kampir tog‘oraga suv quyib, ularga sovun, sochiq va tirnoq cho‘tkasi berdi. Yun darrov yuvinishga kirishdi, Sofus esa erinchoqlik qildi. Shunda kampir uning qo‘lidan ushlab ko‘pikli suvga botirgan edi, o‘zingiz bilasiz, Sofus qo‘lidan ajraldi.

— Shu yoshga kirib bunaqasini ko‘rmaganman! — qichqirib yubordi kampir.

Yun tezda cho‘ntagidan bo‘rni chiqarib, Sofusga yangi qo‘l va tirsak, mehmonda o‘tirganliklarini eslab, bir yo‘la yangi kamzul ham chizdi — oldingisi g‘ijimlanib ketgan edi-da.

— Iltimos, menga galstuk ham chizgin! — ingradi Sofus. — Hanuzgacha galstuk taqishni orzu qilaman! Yana, oq ko‘ylak, kamzulimga yon cho‘ntak ham.

— Yaxshi, faqat ehtiyot bo‘l, seni yana birov artib tashlamasin! Esingda bo‘lsin, biz bo‘rni hadeb ishlatolmaymiz!

— Albatta, yo‘q! Ey, yo‘q, albatta, ha!


Shundan so‘ng, ular yana dasturxon atrofida yaxshilab o‘rnashib, shirin kulchalarni paqqos tushira boshlashdi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bu shirin kulchalarning har biriga qaysidir hayvonning shakli va o‘sha hayvon nomining bosh harfi ifodalangan. Masalan, bitta kulchaga «A» harfi

yozilgan, bu «Antilopa» degani. Semizgina buzoqqa «B» harfi bitilgan. Bolakaylar harflarni alfavit tartibida bir qatorga tizishdi.

Antilopaning hamisha atrofga alanglab, qoʻrquvdan qaltirashini Yun sezib qoldi va nimadan qoʻrqayotganini soʻradi.

— Akulalar Afrika antilopalarini aldaydilar! — dedi Antilopa.



Bolakaylar tushunishdiki, antilopalar faqat «A» harfi bilan boshlanadigan soʻzlarnigina ayta olisharkan!


— A-ha, demak, sen gapirishni bilar-kansan-da? — dedi Yun.

— A! — deb javob berdi Antilopa. Chunki u «ha» deya olmasdi.

Buzoq faqat shataloq otardi, chunki ularning qiligʻi shunaqa.

— Botir buzoqlar barcha barglarni bop-
laydi! — dedi u.

Undan qayerda yashashini soʻrash-
ganlarida, javob bermadi. Buzoq judayam
band edi-da.



Dehqonchumchuq yerda chuqurcha qazib,
shu chuqurchada oʻtirib olgan, patlari esa
tuproqqa belangan edi.

— Bu oʻtirishing nimasi?— dedi Yun.

— Dangasalik, — dedi dehqonchumchuq.


— Qayerda yashaysan?

— Dehqonobodda, — dedi dehqonchumchuq va chuqur
nafas olib, patlarini qoqdi. — Doʻmboqchalarim,
dehqonchumchuqni dangasa demanglar, — taʼkidladi va
qoʻshib qoʻydi: — Dilim dunyoday!

— Biz senga ishonamiz, — dedi Sofus.

— Eh-he-he-he! — degan chollarning
yoʻtaliga oʻxshash ovoz eshitildi.

Bolakaylar ovoz kelgan tomonga oʻgirili-
sharkan, soqolli echkini koʻrishdi.



— Qayerdan kelib qoldi bu? — hayron bo‘lib so‘radi Yun. — Qaysi mamlakatdan ekan, a?

— Efiopiyadan! — dedi echki xirildoq ovozda. Lekin u aldagan edi. Chunki echkilar boshqa mamlakatlarda ham yashashini hamma biladi.



— Familiya?! — qat‘iy qilib so‘radi fil bolakaylardan.

— Sulbekken, — dedi Yun hech narsaga tushunmay.

— Fu! Foydasiz familiya! — fil boshqa hech nima demadi.

Govmish ko‘zlarini chala yumgancha kavsh qaytarib yotardi.

— Nimalarni o‘ylab yotibsən? — deb so‘radi Sofus.


— Gurkirab gullagan gullarni, — dedi govmish.

U kavsh qaytarayotgani uchun boshqa hech narsa demadi. Bolakaylar unga shirin kulcha berishganida:

— Gop! — deya uni yutib yubordi. So‘ng: — Gut (nemischa, «yaxshi» degani)! — dedi.

— Qaysi mamlakatdan kelgansan o‘zi?

— Gollandiyadan! — dedi govmish uzun kipriklarini pipiratarikan. Uning bu harakati chet tilini bilishidan mag‘urlanayotganini ko‘rsatardi.



— Haqiqat — hamisha haqiqatdir! — dedi daraxt shoxida o‘tirgan haqqush hayqirib. — Hamisha haqiqatni himoyalanglar!


— Albatta, albatta! — deyishdi bolakaylar jiddiy tortib. — Biz bu olamda shuning uchun yashayapmiz-ku, axir!

It ko‘zlarini yumgancha, jimgina qand shimib yotardi.


— Ko‘proq nimani yaxshi ko‘rasan? — deb so‘radi Yun.

— Ilikni, irisni! — javob berdi it.

— Demak, sen shirinlikka o‘ch ekansan-da! — kuldi Sofus.



— Ijrg‘anyapsanlarmi? — dedi it irillab. Shundan so‘ng undan boshqa gap olib bo‘lmadi.



A yo‘q, be yo‘q, jayra shikoyat qilishni boshladi. Uning o‘tkir nayzalari to‘rt tomonga tarvaqaylab ketgan.

— Judayam janubga jildim, janoblar. Janub jazirama-da! — dedi u og‘zini


katta ochib.

— Bo‘lishi mumkin! Yana kim biladi, deysan! Ehtimol judayam issiqdir?

— Judayam, judayam! — dedi jayra bolakaylarning orqasidan ergasharkan.

— Kamtarga kamol! — degan ovoz eshitildi qayerdandir. Qarashsa, bu kalxat ekan.

Shu damda u shirinroq bir nima yegisi kelib turgan ekan — masalan, bir parcha go‘shmi, qaymoq yoki quymoqmi. Afsuski, u bu narsalarning otini aytolmasdi. Chunki bu taom nomlarida «K» harfi yo‘q edi. To‘g‘ri, kofe «K» harfi bilan boshlanadi, lekin kalxat kofeni yoqtirmasdi. Kotlet, kolbasa deyishi mumkin edi, ammo bu narsalar uning esiga kelmadi. Yun bilan Sofusga birozgina mo‘ltayib qarab turdi-da, so‘ng:



— Ko‘rishguncha! — dedi va uchib ketdi.

— Latofatli laylakka lutf lozim! — deya hayqirdi laylak.

Avvaliga ovoz qayerdan kelayotganini bilmagan bolakaylarning ko‘zi simyog‘ochning uchidagi sallaga tushdi. Ovoz o‘sha yerdan kelayotgan ekan.

— Lallayma! — dedi laylak yuqoridan turib. — Labing loy-ku.

Bolakaylar bir-biriga qarab qoldi. Haqiqatan ham Sofusning labi loy edi. Tupugi bilan loyni artmoqchi edi, Yun ruxsat bermadi.

— Labingdan ajralib qolasan. Loyning o‘zi qurib tushadi.



— Latta lozimmi? — dedi laylak yana. Bu gapga bolakaylar parvo qilishmadi.

— Mening mittijonlarim! — dedi inqillagancha semiz morj. — Mumkinmi?!

Yun bilan Sofus to‘xtashdi.

— Men... masalan, morj-larga... — yig‘lamsirab gap boshladi morj, — muzdek makaron, marmelad... — U gapi-



rishga toza qiynalardi. Chunki «M» harfidan tashqari boshqa harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni aytolmasdi. Kun bo‘yi yeyishdan tinmasa-da, qorni yana ochligidan shikoyat qilardi.

Bolakaylar uning gaplariga quloq solmay, yo‘llarida davom etarkanlar, morj ularning orqasidan «Mittivoylar!» deya qichqirib qoldi.





Biqiniga «N» harfi yozilgan, mo‘ynasi yal-yal tovlanayotgan norkaning tanasi ho‘l. Aslida, «N» harfisiz ham uni tanib olish unchalik qiyin emasdi.

U faqat norkachasiga gapirgani uchun Yun bilan Sofus hech narsaga tushunishmadi.

— Nima? — dedi norka va birdan orqasiga qaramay qochdi. Chunki u otdan qo‘rqib ketgandi.

— Otning ovqatini oynakli odam oldi! — dedi ot norozi ohangda.

— Bu adolatdan emas! — qichqirib yubordi Sofus.



— Odobsizlik! — kish-nab yubordi ot.



— Pakana pingvin panada pisib poylaydi, — dedi pingvin o‘zicha kulib.

— Novcha pingvin nima ish qiladi? — dedi Yun ham kulib.

«N» harfiga tili aylanmagan pingvin biroz o‘ylanib turdi-da, so‘ng:

— Povcha pingvin payt poylaydi, — dedi qanot qoqib.
Bolakaylar u bilan pachakilashib o‘tirishni o‘zlariga ep ko‘rishmadi.

Bolakaylarning shundoqqina oldidan «Q» harfi yugurgancha o‘tib ketdi. Bu, albatta, hammaga tanish quyvon edi. Shoshganicha mehmonga boryapti yoki kimdandir qo‘rqib qochyapti. Bunaqa paytda u bilan gaplashishning hech iloji yo‘q.



— Rosti, roziman, — degan ovoz keldi botqoq tomondan. Biqinida «R» harfi bo‘lsa-da, bolakaylar uning kimligini hadeganda bilaverishmadi.

— Sening isming nima? — deb so‘rashdi undan.

— Rjanka, — dedi rjanka tumshug‘idagi loyni qanotiga surtib. So‘ng nima deyishini bilmay boshini likillatib turaverdi. «Chualchang, chivin, pashsha» kabi hasharotlarni yegisi kelib tursa-da, ularning otini aytmadi. Rjanka gapiravermagandan keyin bolakaylar ham vaqtni bekorga ketkazishni istashmadi.

— Sichqonning sayraganini sezgan-misizlar? — dedi sichqon bolakaylarni to‘xtatib.



— Yo‘q, — dedi Yun qat‘iy qilib. — Sichqon chiyillaydi. Undan keyin mushukdan o‘lguday qo‘rqadi.

Mushukning otini eshitgan zahoti sichqonning ini ming tanga bo‘ldi va ura solib qochdi.

Bolakaylar yelka qisib qolishdi.



— To‘qqizta toshbaqani to‘rt tomonga tirqiratib tashladim, — deya maqtandi tulki paxmoq dumini likillatib.


— Nega endi toshbaqalarni? — deya kuldi Yun. — Gapingga kim ishonadi?

— To‘ti, to‘rg‘ay! — dedi tulki.

— Ularni qayerdan topish mumkin?

— Topolmaysizlar!

Bolakaylar aldanib qolishlaridan qo‘rqib, tulkiga boshqa savol berishmadi.



— Ukkilar umuman uyquchi! — o‘z-o‘zini tanqid qildi ukki. So‘ng qo‘shib qo‘ydi: — Uyquchimas!

— Bu nega ikki xil gapiryapti? — deb so‘radi Sofus Yundan.

— Shuni ham bilmaysanmi? — dedi Yun donolik qilib. — Ukkilar kunduzi uxlab, kechqurun ov qilishadi. Yoki kechasi ov qilib, kunduzi uxlashadi.

— Uqtirishni-da uddalading! — dedi ukki qanot qoqib.


— Uddaladim, uddaladim! — dedi Yun jahl bilan va Sofusga «qo‘y» degandek qo‘l siltadi.

«V» bu — vombat (qopchiqli sut emizuvchi) edi. Ayiqqa o‘xshamagani uchun uni tezda tanib olish mumkin edi.



— Vag‘irlama, vassalom! Vag‘-vag‘, vag‘-vag‘!..

— Katta rahmat, yaxshi qoling! — deyishdi bolakaylar va «X» harfi yozilgan xarza (mo‘ynali hayvon)ni qidirishdi. Vombat bilan gaplashish og‘ir edi-da.



— Xarza xurmo xohlaydi! — dedi xarza uyalinqirab.

— Yana sabziyam! Bu judayam foydali, — qo‘shib qo‘ydi Sofus.

— Xurmo xushxo‘r-da! — dedi xarza va tezda daraxtga chiqib oldi.

Qalin o‘tlar orasida pisib yotgan yo‘lbarsni ko‘rgan bolakaylar uni zebra

deb o‘ylashdi. Faqat o‘zlari chizgan tanasidan yo‘lbars ekanini tanishdi.

— Ovga tayyorgarlik ko‘ryapsanmi? — deb so‘radi undan Yun.

— Yo‘q! — dedi yo‘lbars xirillab. — Yo‘llaringda yo‘rg‘alalaring!..



— Yur, tezroq bu yerdan keta qolaylik, — dedi Sofus Yunga qarab. — Oviga xalaqit berdik chog'i, jahli chiqib ketdi.

Zebraning ola-bula qorniga yozilgan «Z» harfini arang bilib olish mumkin edi.




— Zebralar zerikkanda zavqlanisholmaydi. Zo'rlar zaiflarning zavoli! — dedi zebra zerikarli ohangda.

— Bu — noto'g'ri! — dedi Sofus. — Zebralar misoli otday gap.

Lapashanglik qilishmasa, ularga hech kim yeta olmaydi.

Sofus gapini tugatmasdanoq, zebra jo'nab qolgan edi.

— O', — deb chaqirdi o'rdak bolakaylarni o'rdakchasiga. — O'zaro o'yin o'ynayapsanlarmi? O'yinqaroqmisanlar?



Yun o'rdakni darrov tanidi. Chunki ularning hovlisida o'rdak bor edi-da.

— Nima qilib o'tiribsan bu yerda? — deb so'radi Yun o'rdakdan.



— O'ylab o'tiribman, — dedi o'rdak. — O'tiringlar, o'zaro o'ylash o'yinini o'ynaymiz.

— Vaqtimiz ziq, — deyishdi bolakaylar baravariga. — Xayr, yaxshi qoling!

— G'oq-g'oq-g'oq, — degan ovoz bolakaylarning xayolini to'zitib yubordi.

— Ana «G» harfi! — quvonchdan qichqirib yubordi Sofus. — Lapanglab kelishini qara!

— Bu — g'oz bo'ladi, — dedi Yun, Sofusga uni tanishtirib. — Qo'shnimizning hovuzida bunaqalar juda serob. Bu ham o'shalardan bittasi-da!

Bolalar u bilan so'rashmay o'tib ketisharkan, g'oz ularning orqasidan xo'rsinib qarab qoldi.

— G'alati!

— Shunga shunchami? — dedi shunqor keng qanotlarini qoqarkan. — Shaharlikmisizlar?



— Ha, — deb javob berdi Yun. — Buni nega so‘rayapsan?
— Shunchaki, — dedi shunqor va noma‘lum tomonga uchib ketdi.

— Chumolixo‘r chumolilarni chaqiryap-timi? — deb so‘radi Sofus Yundan.

— Chaqiryapman! — deb javob berdi Yundan oldin chumolixo‘r.

— Nima ish qilasan o‘zi? — jiddiy so‘radi Yun.


— Chumoli chaynayman, — jiddiy javob berdi chumolixo‘r. — Choychaqa chiqaringlar...

Bolakaylar cho‘ntaklarini ag‘darib ko‘rsatishdi. Chumolixo‘r esa indamay qo‘ya qoldi.



PAKANA ODAM

Bolakaylar bog‘ni o‘rab turgan panjarada



degan g‘alati yozuvli belgiga duch kelishdi.

Yun bu belgi qanday ma‘noni bildirishini bilar, Sofus ham o‘zini bilag‘on qilib ko‘rsatardi. To‘g‘risi, u hech narsaga tushunmasdi, chunki harf tanimasdi-da.

Ular yana uzoq-uzoq yo‘l yurishdi. Oxiri quyosh chiqib, atrof yorug‘ va go‘zal bo‘ldi. Yun bilan Sofus qarshilaridan chiqib qolgan tepalikka ko‘tarilishdi. Tepalikning eng yuqorisida kattakon qarag‘ay ko‘kka bo‘y cho‘zib, adl tomirlari bilan yerni mahkam quchib turar, qarag‘ayning ostida esa semizgina, mehribon, lekin judayam och pakana odam o‘tirardi. Pakananing bo‘yniga sochiq bog‘langan, qo‘lida esa kumush sanchqi. Bu sanchqini uzoq yillar oldin tug‘ilgan kunida unga amakisi sovg‘a qilgan edi. Norvegiyada qarindoshlar bir-biriga har doim shunaqa sanchqi sovg‘a

qilishadi. Pakananing qo‘lidagi sanchqiga chiroyli harflar bilan «Qimmatli Kumlega» degan yozuv jimjimador qilib o‘yib yozilgan.

Shunday qilib, bizning pakananing ismi Kumle. U qachon xizmatkor tushlik keltirishini kutib, qo‘lida kattakon tovoq ushlab o‘tiribdi. Tushlik kutish barobarinda quyosh bilan o‘ynashib, quvnoq qo‘shiq kuylab yubordi. Ba’zi bir pakana-lar quyoshdan qo‘rqishadi. Quyosh nuri tutunga aylanib, so‘ng yo‘qolib ketadi deb o‘ylashadi. Lekin bizning pakana quyosh nurini sevadiganlardan.

Kumle Yunning qo‘lidagi bo‘rni ko‘rib hayratlandi.

— Bu bo‘r judayam menbop ekan, — dedi u. — Ehtimol, menga sotarsan?

— O‘rniga nima bermoqchisan? — so‘radi Yun. — O‘zi kichkina bo‘lsa-da, ko‘rib turibsan — bebaho.

— Uchta tilagingni bajara olaman, — dedi Kumle burnini tortib.

— Xohlagan tilagimni-ya?

— Albatta!

— Yaxshi, lekin sen Sofusga ham xuddi shunday va‘da berishing shart.

— Marhamat!

— Shunday ekan, — qichqirdi Sofus, — men tilla tangali hamyonim bo‘lishini istayman. Hamyondan tangani olsam, joyida yana boshqasi paydo bo‘lsin.

— Marhamat, mana sening hamyoning! — dedi Kumle.

— Yana, skripkani hammadan yaxshi chalsam devdim! — davom etdi Sofus.

— Mayli, mana senga skripka, xohlaganingcha chal, eshitadigan muxlislar topiladi!

— Endi bir quticha konfet bo‘lsa.

— Qanaqasidan? Mevali, qaymoqli yoki shokolad-lisidanmi?

— Qaymoqlisidan. Kimki bu konfetni yesa, boshida soch bilan birga o‘t ham o‘sib chiqsin.

— Marhamat, mana senga o‘sha konfet!.. Yun, endi sening navbating keldi!

— Men nimani xohlasam shu narsa hamisha muhayyo bo‘lsin, — dedi Yun.

— Afsuski, buning iloji yo‘q, — dedi Kumle.

— Hech bo‘limganda yigirmata istagim ijobat bo‘lsin!

— Yo‘q, buniyam iloji yo‘q.

— Unda do‘stim Sofus suvda erimaydigan bo‘lsin. Har safar qo‘li yoki oyog‘ini yo‘qotganida yuraklarim ezilib ketadi.

— To‘xtanglar! Shoshmanglar! — qichqirdi Sofus. — Meni suvda erimaydigan qilishdan oldin boshimni yangilashning iloji bormi?

— Nahotki senga bitta bosh kamlik qilsa? — norozi ohangda so‘radi Yun.

— Yo‘q, men ikkinchisini so‘ramayapman, — o‘zini oqlagan bo‘ldi Sofus. — Jingalak sochli, moviy ko‘zli boshim bo‘lishini istayman...

Kumle kaftiga tuflab Sofusning boshini tozalab artdi va bo‘r bilan unga yangi bosh chizdi. Boshmisan, bosh bo‘ldi. Kumle yaxshi rassom ekanligidan faxrlandi. Suvda erimaydigan bo‘lgach, Sofus suvdan qo‘rqmaydigan bo‘ldi.

— Menga ham konfet, — dedi Yun. — Mening konfetlarim Sofusning konfetlarini yeb, boshida o‘t o‘sgan odamlarni tuzatadigan bo‘lsin.

— Marhamat! — dedi Kumle.

— Yun, sen umuman hazilni tushunmaysan! — xafa bo‘ldi Sofus. — Nahotki mening birozgina xursand bo‘lishimni istamasang?

— Menga kerak bo‘limguncha uchinchi tilagimni hozircha aytmay turaman, — dedi Yun.

— Nachora, o‘zing bilasan! — rozi bo‘ldi Kumle. — Bir qarorga kelganingdan keyin menga qo‘ng‘iroq qilsang bo‘ldi. So‘z beramanki, sening har qanday tilaging amalga oshadi.

— Katta rahmat! — dedi Yun va ta‘zim qilib, Kumlening qo‘lini siqib qo‘ydi.

— Katta rahmat! — dedi Sofus ham Yunning harakatlarini takrorlab.

SOFUS UYLANMOQCHI

Bolakaylar yana bir bor ta'zim bajo keltirib, Kumle bilan xayrlashishdi. Sofus skripka chalishni kanda qilmas, yo'l esa uzoq edi. Shu payt ular qoqilib, dumalab, yiqilib, dumaloq oshib qayoqqadir uchib ketishdi. Yaxshiyamki, Sofus skripkani quchoqlab olgan ekan, bo'lmasa sinib ketishi hech gap emasdi. O'rinlaridan turishgach, o'rdak va o'rdakchalar suzib yurgan katta hovuzni ko'rishdi. Yun bilan Sofus o'rdaklarga parvo qilmay yana yo'lga tushib, kun oqqanda katta va chiroyli shaharga kirib borishdi. Do'konlar hali ochiq. Do'konga kirib, o'zlariga ola-bula shim, galstuk, ipak ko'ylak hamda yangi botinkalar sotib olishdi. Keyin mashinaga o'tirib hashamatli mehmonxonaga borishdi.

Ertasi kuni Sofus o'zining botirligini namoyish qilish uchun to'g'ri saroyga borib, qirol uchun skripka chalib berishga ruxsat so'radi.

Qirol taxtiga o'tirdi, uning yonida Qirolicha, Malika esa ko'zguli stol qarshisidagi kursiga joylashdi. Malika judayam go'zal bo'lgani uchun Sofus undan ko'zini uzolmas, malika bo'lsa qiyo boqmas, kimdir unga murojaat qilsa, «hovva» deya javob berardi.

Sofus ta'zim qildi va shunaqangi quvnoq kuy chaldiki, hatto Qirolicha shodlanib kuldi. Chunki, oxirgi o'n besh yil ichida birinchi voqea edi bu. Qirol ham xursandligidan taxtidan sakrab turib o'yinga tushib ketdi.

— Ashula aytishni ham bilasanmi? — deb so'radi Qirolicha.

— Albatta, — javob berdi Sofus va darrov kuylay boshladi:

Qirolicha Karolina
Garderobda uzoq turib
Ko'ylaklarin kiyib ko'rdi.

«Hech narsaga tushunmayman,
Nega yupkam buncha tor?
Ko'ylagim sig'mas nega?»

O‘ylab ko‘rsam men birrov,
Ko‘ylak ozib qolgan-ov!»

Qirolicha Karolina
Moyni olib qo‘liga
Goh surtar o‘ng yuziga,
Goh qaraydi ko‘zguga.

«Nega yuzlarim shishgan! —
Xafa bo‘lar malika. —
Ehtimol bu siyohdir,
Yo qatqaloq bo‘yoqdir!»

— Qanaqangi bema’ni ashula! — deya xitob qildi Qirolicha. —
Mening ismim Karolina ekanligidan xabaring bo‘lmasa kerak?
Erimning ismi esa Rasmus. Qirol Rasmus Birinchi!

— Kechirasiz! — dedi Sofus. — Men qirolning ismi Rasmus
ekanligini bilmasdim.

Sofus biroz o‘ylanib turdi-da, so‘ng «Karolina» deb
nomlangan yangi kuyni ijro etishini e‘lon qildi. U skripkani
chalganda kamoncha ostidan shunaqangi ajoyib kuy
yangradiki, aftidan, million-million xushbo‘y gulbarglar
ko‘zguning yaltiroq betida ipak misol terilgandek bo‘ldi.

Malika o‘rnidan sakrab turdi va:

— Mening qaylig‘im bo‘lishni istaysanmi? — dedi
dabdurustdan.

— Ha, albatta! — dedi Sofus va Qirol bilan Qirolichaning
ko‘z o‘ngida malika bilan o‘pishishdi.

— To‘xta! — dedi Qirol. — Men oldin senda biror boylik
bor-yo‘qligini bilishim kerak. Hamma ham qirolning qiziga
uylanavermaydi.

— Menda kattagina yer-mulk bor, — dedi Sofus. —
U shunchalar kattaki, undan keladigan foydani tasavvur
ham qilolmaysiz.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu gapda birorta ham to‘g‘ri so‘z
yo‘q. Sofus bu gapni shunchaki aytdi, chunki oltin tangali
hamyonini ko‘rsatgisi kelmagandi.

— Shunaqami! — dedi Qirol qiziqish bilan. — Qancha sigiring bor?

— Men umuman sigir saqlamayman. Uning o‘rniga sut ishlab chiqaruvchi apparat olganman. Xo‘jaligim judayam katta — har bahorda besh ming bochka ivitilgan olma yig‘amiz.

— Har bahorda? — qayta so‘radi Qirol. — Nahotki, sening olmang bahorda yetilsa?

— Albatta, — dedi Sofus o‘ktamlik bilan. — Qishning oxirida olma qimmat bo‘lgani uchun uni bahorda terib olamiz.

— Qanaqa zotli otlardan boqasan? — qiziqib so‘radi Qirol.

— Dengiz otlaridan! — dedi Sofus.

— Qiziq-ku!

— Maqtansa bo‘ladigan narsalar bor.

— Donni qachon yig‘ishtirib olasizlar?

— Odatda bu ishni tushlikdan keyin bajaramiz. Donni dasturxonga o‘rab, qurib qolmasligi uchun javonda saqlaymiz.

— Umrim bino bo‘lib bunaqa safsatani eshitmaganman!

— Ko‘pincha biz nonni gazlamali qalin qopchalarga joylab qo‘yamiz, — qo‘shimcha qildi Sofus.

— Pichanni-chi? — deb so‘radi Qirol. — Pichanni nima qilasizlar?

— Har xil. Ba‘zida qaynatamiz, ba‘zida qovuramiz, ko‘pincha yashiklarga joylab, sotish uchun shaharga jo‘natamiz.

— Bilasanmi, men nimani o‘yladim?

— Yo‘q, bilmayman.

— Menimcha, senda hech qachon hech qanaqa yer-mulk bo‘lmagan!

— Men ham shunday deb o‘ylayman! — dedi Sofus va istamaygina cho‘ntagidan oltin tangali hamyonni Qirolga ko‘rsatdi.

— Sen hamyondan pulni o‘zi oladigan apparat ixtiro qilolmaysanmi? — dedi Qirol piching qilib. — Uxlaganingda yoki tushlik qilayotganingda ham qancha vaqting bekorga ketadi!

— Men bu haqda yaxshilab o‘ylab ko‘raman, — dedi Sofus.

OXIRGI BOB

Yun Sofusning g'irt yolg'onlariga toqat qilolmay bog' bo'ylab sayrga chiqdi va bog' unga judayam g'alati ko'rindi. U bog'da sayr qilib yurgan paytda malika Sofusga xushomad qila boshlagan edi.

— Sehrli hamyonni ushlab ko'ray, — dedi Malika. — Uni judayam ushlagim kelyapti! Iltimos, bir daqiqaga qo'limga berib tur! Ozgina ushlab turgandan keyin qaytarib beraman.

Sofus hamyon bilan skripkani unga uzatdi. Malika unisiniyam, bunisiniyam oldi-da, temir sandiqqa soldi va sandiqni qattiq yopti. Bu paytda Sofus divanda oyog'ini bir-biriga chog'ishtirib, og'zida sigara, shiftga qarab, Qirolning qiziga uylangandan keyin nima qilishi haqida o'ylardi.

— Qani, endi bu yerdan yo'qol, to'nka! — qichqirdi Malika. — Yo'qol bu yerdan!.. Senam yo'qol! — dedi endigina xiyobondan qaytgan Yunga qarab.


Sofusning labidagi sigara tushib ketdi. Malika hazil-lashyapti deb o'yladi.

— Hazrati oliyalari, — dedi Sofus, — xayrlashish oldidan sizni shirinlik bilan siylashimga ruxsat bersangiz.

Sofus nazokat bilan ta'zim qildi va Kumle bergan shirinlikni Malikaga uzatdi. Malika darrov ikkita konfetni olib og'ziga soldi, hatto rahmat ham demadi. Qirol va Qirolicha ham bittadan konfet olishdi. Shundan so'ng, Sofus bilan Yun yana bir marta ta'zim qilib, jo'nab qolishdi.

Ertasi kuni gazetalarning birinchi betida Qirol, Qirolicha va Malika yangi bosh kiyimi kiyishgani haqidagi muhim xabar bosilib chiqdi. Ular kiygan shlapa to'garak shaklida bo'lib, gulzordagi turli maysa hamda poxoldan tayyorlanganday edi. Gazetalarda ham shlapaning xuddi shunday ko'rinishdagi rasmlari bosildi.

Shahardagi barcha xonimlar va janoblar darrov o'zlariga o't-o'lanli shlapa sotib olib, bir-birlariga yangi bosh kiyim judayam yarashganini chug'urlashib tushuntirishar, Qirol, Qirolicha va Malika o'z shlapalarini shunaqangi yaxshi



koʻrganliklari bois uni hecham boshlaridan yechmasliklari haqida gapirishardi.

Yana gazetalar Qirol oʻz qasriga dehqon, botanik, doʻxtir va soch oʻstirishni biladiganlarni chorlagani haqida xabar tarqatdi.

Saroyga mamlakatning turli burchaklaridan sartaroshlar, tabib va dorishunoslar oqib kela boshladi. Bu yerga oʻt-oʻlanlarning tilini biladigan dehqonlar, «oʻsimliklar bizga qaram», deb oʻylagan bogʻbonlar kelishdi. Ularga saroyda koʻrganlarini hech qachon hech kimga aytmasliklari uchun qasam ichirishdi. Shundan soʻng, Qirol, Qirolicha va Malikaning boshida shlapa emas, aksincha, soch bilan birga oʻt-oʻlan oʻsib chiqqanligini bilishdi.

Dehqonlar oʻtlarni qirqishdi, oʻrishdi, lekin u yana qayta oʻsib chiqaverdi. Tabib va dorishunoslarning til ostiga tashlasang ogʻizni pechkaday qizdiradigan antiqa dorilari ham kor qilmadi. Bogʻbonlar oʻtlarga zaharli kukunlar sepishdi, hatto Kolorado qoʻngʻizi ham qoʻyib koʻrishdi. Afsuski, oʻt oʻsaverdi, oʻsaverdi! Malika boʻzladi, Qirol hamma yoqni boshiga koʻtardi, Qirolicha esa yotoqxonasiga qamalib olib, u yerdan chiqmay qoʻydi.

Kuz kirib, o'tlar sarg'ayib, so'liy boshladi. Endi Qirol oilasi o'z kasalliklarini yashirishlari yana-da qiyinlashdi.

Shunda Yun bilan Sofus saroy darvozasini taqillatib, bu kam uchraydigan kasallikni davolay olishlarini aytishdi.

Bolakaylarga ichkariga kirish uchun ruxsat berildi. Qirol, Qirolicha va Malika ularni ko'rgach, shunday jahllari chiqdiki, boshlaridagi sarg'aygan o'tlar tikka bo'ldi. Bir nima deyishga qo'rqishdi, chunki bolakaylar davolashdan voz kechishlari mumkin-da. Ular o'zlaricha o'ylashdi: «Shoshmay turishsin, ishlarini qilib bo'lgandan so'ng, ularga ko'rsatib qo'yamiz!»

Sofus baland va tantanali ovozda hamyon bilan skripkani qaytarishlarini talab qildi. Malika g'azabdan oyoqlarini tipirlatmasin, Sofusning boyligini qaytarib berishdan boshqa iloji qolmadi.

Shundan so'ng, Yun Qirolichaga konfet berdi. Qirolicha konfetni yutib bo'lar-bo'lmas o't yo'qolib, uning boshidan soch o'sib chiqdi. Ikkinchi konfetni Qirol oldi va garchi, ancha ilgari boshida sochi bo'lmasa-da, darrov tuzaldi.

— Endi mening navbatim! — qichqirdi Malika.

— Negadir seni davolagim kelmayapti, — dedi Sofus. — Haddan tashqari battolsan!

Biroq Yun ta'zim qilib, unga uchinchi konfetni uzatdi. Malika uni yutarkan, shu vaqtning o'zida boshini soch qopladi. Yun Sofusning qo'lidan mahkam ushlab, dedi:

— Hozirning o'zida Kumle mening uchinchi tilagimni bajarishini xohlardim. U bizni uyimizga — oyimning oldiga oborib qo'ysin!..

Shu lahzaning o'zida ular Yunning onasi kuymalanib yurgan oshxonada paydo bo'lib qolishdi. Yunning onasi shunday bo'lishini bilganday go'shtli kotlet tayyorlayotgan edi.

— Qayoqqa yo'qolib qolding? — deb so'radi Yundan onasi. — Allaqachon uyga qaytishing kerak edi.

— Hozir soat necha bo'ldi? — surishtirdi Yun.

— To'rt dan oshdi, — dedi oyisi.

— Bugun qanaqa kun? — kovlashtirishni davom etdi Yun.

— Har holda ertangi kun emas. Nima, do'stingni birga olib keldingmi? Qani, bundoq o'tiringlar-chi, tushlik

qilasizlar. Men sendan xavotir olayotgandim, o‘g‘lim! Shuncha uzoq qolib ketadimi kishi!.. Voy, quloqlaringning kiriga qara! Hoziroq yuv-chi!

Oyisi bu gapni o‘g‘liga achinganidan aytayotgani yo‘q. Onalar hamisha shunaqa deydi. Ularga bu odat bo‘lib qolgan.

— Sen kimning bolasisan? — dedi Yunning oyisi Sofusga qarab. — Sen, ehtimol, Yun bilan bir sinfda o‘qisang kerak?

Ikkalasi Yunning oyisiga bo‘lgan voqeani bir boshdan gapirib berishdan oldin hamyonni ko‘rsatib maqtanmoqchi bo‘lishdi. Qarashsa, hamyon yo‘q, uni Sofus yo‘qotib qo‘yibdi. Biroq, bu unchalik qo‘rqinchli emas edi, asosiysi — u skripkani ehtiyotlagan edi...



MUALLIF HAQIDA

Yun bilan Sofus sarguzashtlari haqida hikoya qiluvchi «Sehrli bo‘r» ertaginiing muallifi taniqli norveg adibasi Sinken Xoppdir.

Sinken Xopp (Signe Mariya Xepp) 1905-yilda tavallud topgan bo‘lib, 30-yillarda kattalar uchun hazil she‘r va hikoyalar yozgan. Urushdan so‘ng uch yil o‘tgach, «Ezgulik uchun mukofot» deb nomlangan roman-parodiyasini e‘lon qilgan. Lekin shoira ayni kamolotga yetganda butun dunyo bolalari uchun yaratgan ikkita kitobi unga katta shuhrat keltirdi. Parodiya-satirik ruhdagi bu ikki kitob bir-birini to‘ldiradi. 1949-yilda nashr etilgan bu kitoblarning biri «Sehrli bo‘r» bo‘lib, juda ko‘p tillarga tarjima qilindi. Bu asar uchun adibaga Parijda «Oskar» mukofoti topshirildi. 1959-yilda e‘lon qilingan «Yun va Sofus» — ikkinchi kitob ham dunyo bolalarini hayratga soldi. Bundan tashqari, Sinken Xopp bolalar uchun yana «Nils» va «Kari» nomli asarlarni yaratdi.

Sinken Xopp L. Kerrollaning «Alisa g‘aroyibotlar mam-lakatida» asarini norveg tiliga o‘g‘irgan. Shuning uchun ham «Sehrli bo‘r» asari qahramonlarining harakatlari, hazil-mutoyibalari Alisaning kulgisiga juda yaqin. Bu hajviy ertakdagi obrazlar orqali adiba bolalar tasavvuridagi ijtimoiy, axloqiy muammolarni ochib beradi, do‘stlik, birdamlik, sadoqat kabi insoniy fazilatlarini tarannum etadi. Adiba bu asarda go‘zal orzularni qalamga oladi. To‘g‘ri, bu orzular xayoliy bo‘lsa-da, u yorqin va samimiy orzu, bu orzularni Sinken Xopp bolalar bilan bo‘lishadi, asarda qorishib ketgan kulgi esa xayoliy orzuni bachkanalikdan himoya etib, o‘quvchini go‘zal orzularga oshno qiladi.